
"BO'STON" MAHALLASIDA KABEL TORTISH ISHLARIGA KIRISHILDI

Farg'ona shahrining "Bo'ston" mahalla fuqarolar yig'inida loyiha asosida past kuchlanishli elektr uzatish tarmoqlarini yangilash hamda modernizatsiya qilish ishlari davom etmoqda. Loyiha asosida hududda 282 dona yangi temir-beton tayanchlarini o'rnatish, 7,1 km uzunlikdagi 0,4 kVli yangi elektr uzatish kabel tarmog'ini tortish hamda 4 dona transformator punktini quvvatini katta quvvatlisiga almashtirish, yangilash ishlari rejalashtirilgan. Ayni vaqtda, hududga yetkazilgan yangi temir-beton tayanchlariga kabel tortish ishlari olib borilmoqda.

2023-08-30 11:50:30